



МАХАЛИЙ BYUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA HUDUDNING
SOLIQ POTENSIALINING O'RNI

Ismoilov Muslimjon
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0009-0003-2598-6240
muslimjonsoliq1804@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda hududning soliq potensialiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar tahlil qilingan. Mahalliy byudjet daromadlarini oshirishga qaratilgan byudjet-soliq siyosatiga doir chora-tadbirlar tizimi, soliq undirish mexanizmlari, hududlarni soliq to'lay olish qobiliyati, ularni oshirish va soliqlarni undirish jarayonida sodir bo'ladigan munosabatlar xorij tajribasi asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: soliqlar, mahalliy byudjet, viloyat byudjeti, shahar byudjeti, foyda solig'i, aksiz solig'i, soliq potensiali, reprezentativ soliq tizimi, yuridik shaxslar, soliq tushumlari, soliq to'lovchilar, soliq imtiyozlari.

РОЛЬ НАЛОГОВОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНА В ФОРМИРОВАНИИ ДОХОДОВ
МЕСТНОГО БЮДЖЕТА

Исмаилов Муслимжон
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье проанализированы показатели, влияющие на налоговый потенциал территории в формировании доходов местного бюджета. Система мер бюджетно-налоговой политики по увеличению доходов местного бюджета, механизмы налогообложения, способность регионов платить налоги, взаимоотношения, возникающие в процессе их повышения и взимания налогов, освещены на основе зарубежного опыта.

Ключевые слова: налоги, местный бюджет, областной бюджет, городской бюджет, налог на прибыль, акцизы, налоговый потенциал, репрезентативная налоговая система, юридические лица, налоговые поступления, налогоплательщики, налоговые льготы.

THE ROLE OF THE TAX POTENTIAL OF THE REGION IN THE FORMATION
OF LOCAL BUDGET REVENUES

Ismailov Muslimjon
Tashkent State University of Economics

Abstract. This article analyzes the indicators that affect the tax potential of the region in the formation of local budget revenues. The system of budgetary and tax policy measures to increase local budget revenues, tax collection mechanisms, the ability of regions to pay taxes, and the relationships that occur in the process of increasing and collecting taxes are highlighted based on foreign experience.

Keywords: taxes, local budget, regional budget, city budget, profit tax, excise tax, tax potential, representative tax system, legal entities, tax revenues, taxpayers, tax incentives.

Kirish.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda avvalombor, soliq siyosati samaradorligini oshirish, soliq turlari va ularning amal qilish mexanizmini soddalashtirish, soliq yuki xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida optimal taqsimlash soliq tizimi oldida turgan eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shuningdek iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida amalga oshiriladigan soliq sohasidagi islohotlarda asosiy e'tibor tadbirkorlik sub'ektlari iqtisodiy faoliyatini soliqlar vositasida rag'batlantirishni ko'zda tutadi, lekin shu bilan birgalikda soliqlarning asosiy fiskal funksiyasi bajarilishi ko'p jihatdan soliqlarning budgetga o'z vaqtida va to'liq undirilish jarayoniga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlarni amalga oshirishda, ular oldiga qo'yilayotgan asosiy vazifalarni soliq siyosatisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Hududlarning soliq salohiyatini oshirish maqsadida, "sharoiti juda "og'ir" bo'lgan hududlar uchun yangi tashkil etiladigan tadbirkorlik subyektlariga, aylanmadan olinadigan soliq hamda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i, yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan mol-mulk soliqlari hisoblangan summadan 1 foiz stavkada to'lash bo'yicha qonun loyihasi"ni (Farmon, 2022) ishlab chiqish va uni amalga oshirish vazifalari belgilab berilgan. Budgetga soliqlarni va to'lovlarini o'z vaqtida tushushi bo'yicha hududlar salohiyatini aniqlash, mahalliy budget daromadlarini shakllantiruvchi omillarni to'lov qobiliyatini oshirish va kelib chiqishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy salbiy natijalarni oldindan aniqlash zaruriyat hisoblanadi. Natijada, hududlarni soliq to'lay olish qobiliyatini aniqlash, qanday qilib budget daromadlarini ko'paytirish mumkin degan savollarga javob topish uchun ilmiy asoslangan tavsiya va takliflarga murojaat qilinadi.

Adabiyotlar sharhi.

Har bir mamlakatning ma'lum bir hududi iqtisodiy rivojlanish holati mazkur hududdagi korxonalar faoliyati hamda mahalliy budget daromadlarining shakllanish manbalari kabi ko'rsatkichlar hudud iqtisodiy xavfsizligini belgilaydigan asosiy jihatlardir. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, hududlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasiga bevosita ta'sir etuvchi omillardan biri – hududlarning soliq salohiyatidir. Shu sababli, mazkur tushuncha, ya'ni «soliq salohiyati» kategoriyasining nazariy mazmun-mohiyatini ko'rib o'tish maqsadga muvofiq. Xorijlik olimlardan T.Saprikina va D.Lisitskiy tomonidan bildirilgan takliflarga asosan, hududlarning soliq salohiyati nisbiy tushuncha bo'lib, u mamlakat hududlarida mayjud undirilishi rejalashtirilgan soliqlarning undirilishi bo'yicha mavjud imkoniyatini o'zida aks ettirib, u hududning yoki mamlakatning yalpi ichki (hududiy) mahsulot (YAIM/YAHM)ga nisbatan aniqlanishi maqsadga muvofiqdir:

$$SS = \frac{\sum SH}{YAHM} * 100\%$$

bu yerda: SS – soliq salohiyati (potensiali), foizlarda; SH – umumiylar soliqlarning hajmi; YAHM – yalpi hududiy mahsulot.

Soliq tushumlarini prognoz qilish uslubiyatini takomillashtirish yo'nalishida tadqiqot olib borgan Xudoyqulov (2019) tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, «soliq salohiyati – milliy xo'jalik, hududlar, yuridik va jismoniy shaxs sifatida soliq majburiyati yuklatilgan shaxslarni davlatning byudjet-soliq siyosati doirasida hamda amaldagi soliq qonunchiligi bo'yicha o'zlariga yuklatilgan soliq majburiyatini to'lash imkoniyati, shuningdek, davlat tomonidan soliqlarning adolatlilik tamoyili buzilmagan holda budgetga maksimal darajada soliqlarni jalb etish mumkin bo'lgan imkoniyatdir».

Budget daromadlari barqarorligini ta'minlashda hududlar soliq salohiyatini oshirish yo'nalishlari borasida ilmiy izlanishlar olib borgan Bozorovaning (2012) talqinicha, hudud soliq potensiali – soliq qonunchiligining amal qilishi sharoitida tahlil etilayotgan davrdagi soliq va boj to'lovlarining ehtimol qilinadigan eng yuqori summasi, shuningdek, soliq va bojxona

organlarining nazorat ishlari natijalari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliq to'lovlari summalarini, ya'ni bu haqiqiy yig'ilgan soliqlar miqdori bilan byudjet daromadlarini potensial to'planishining qobiliyati o'rtaqidagi farqdir.

Chet el adabiyotlarida ko'rishimiz mumkinki soliq potensiali asosida ma'lum hududning soliq tushumlari ko'rinishida daromad keltiradigan soliq bazasi tushuniladi. Xususan, Pelevin (2014) fikriga ko'ra, bugungi kunda soliq potensialini baholash ahamiyatli topshiriqlardan biri hisoblanadi, bu nafaqat budgetga tushadigan soliqli tushumlarni o'sishini, shuningdek ushbu hududning soliq va boshqa tushumlari tushushi prognoz darajasini aniqlash imkonini beradi. Soliq to'lovlarini tahlil qilishning birinchi bosqichi soliq bazasining holatiga ta'sir qiluvchi mintaqaviy omillarni o'rganishni o'z ichiga oladi. Mintaqaning soliq potensialini shakllantirish jarayoniga quyidagi bloklar ta'sir ko'rsatadi:

- tartibga soluvchi va qonunchilik;
- iqtisodiy;
- budget.

Chun-Yan Kuo (2000) soliq potensialini soliq to'lovchilarning soliq to'lay olishi yoki davlatning daromad olish qobiliyati tarzida ifodalaydi.

Yuqorida fikrlarni o'rganar ekanmiz bu fikrlarga qo'shila olmaymiz. Chunki soliqlarni to'lash qobiliyatini soliq potensiali bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Soliq potensialiga soliqlarni to'lash qobiliyatidan boshqa omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Shuningdek Amerika Qo'shma Shtatlarining hukumatlararo munosabatlar bo'yicha Maslahat qo'mitasi tomonidan soliq potensialini davlat xarajatlarini qoplash imkonini mavjud bo'lgan jamiyatning maksimal summasidir deb ta'rif bergen ((ACIR, 1982)

Keng ma'noda "soliq potensiali"- bu hududning soliq solinadigan resurslarining umumiyligi miqdori. Torroq, amaliy ma'noda "soliq potensiali"-amaldagi qonunchilikda hisoblab chiqilgan soliq va yig'im tushumlarining mumkin bo'lgan maksimal miqdori.

Soliq potensiali tushunchasi budget federalizmi modeli keng qo'llaniladigan ko'pchilik rivojlangan davatlarda moliyaviy potensial bilan tenglashtiriladi (Прокопенко, 2007).

Ko'plab mahalliy iqtisodchi olimlar tomidan ham soliq potensiali haqida fikr-mulohazalar, ayrim yondashuvlar bildirib o'tilgan. Ulardan Islamkulov (2017) soliq potensiali har bir davlatning o'ziga xos bo'lgan milliy soliq qonunchiligi, soliq ma'murchiligi, soliq tizimi xususiyatlari bilan izohlanadi deb fikr bildirgan.

Shuningdek Musalimov (2020) hududlarni soliq potesialini mahalliy budgetlarning daromad salohiyatini aniqlashdagi muhim element deb hisoblaydi.

Albatta hududlarning soliq potensiali har bir hududning o'zining ichki imkoniyatlaridan, iqtisodiy imkoniyatlaridan, soliq resurslaridan va soliq to'lovchilarning to'lov qibiliyatidan kelib chiqib aniqlanadi.

Fikr bildirgan mahalliy va xorijiy olimlarni fikrini o'rganar ekanmiz, ularning soliq potensialiga bergen ta'riflarini bilan tanishishimiz mumkin. Misol uchun Chun-Yan Kuo soliq potensiali soliq to'lovchilarni soliqlarni to'lay olish qobiliyati sifatida ta'rif bergen. Amerikalik olimlar esa soliq potensialiga davlat xarajatlarini qoplay olish qobiliyati sifatida qarashgan. Albatta bu berilgan berilgan ta'riflarni hammasi to'g'ri, biroq soliq potensiali berilgan tushunchalardan kengroq tushuncha. Soliq potensiali nafaqat soliqlarni to'lay olish qibiliyatini, balki soliq to'lovchilarni ham, soliq qarzlarini undirish qobiliyatini ham, soliq madaniyatini ham o'zida mujassam etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda ilmiy bilishning nazariy va empirik usullaridan keng foydalanilgan. Xususan, ilmiy abstraksiyalash, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, statistik guruhlash usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va asosiy natijalar muhokamasi.

Soliq salohiyatini aniqlashning eng oddiy usullaridan yana biri sifatida professor I.Gorskiy tomonidan quyidagi usul ishlab chiqilgan (Горский, 1999):

$$NPR = F + Z + L$$

Bu yerda: NPR — hududning soliq salohiyati, (pul qiymatida);

F — xaqiqiy soliq tushumlari, (pul qiymatida);

Z — hisobot davrida soliq qarzdorligining ortishi (pul qiymatida);


L — hududga to'g'ri keluvchi soliq imtiyozlari (pul qiymatida).

I.Gorskiy usulida ko'rsatilgan 2024-yildagi omillarni tahlil qilib o'tamiz. 1-diagrammadan ko'rishimiz mumkinki, 2024-yilda hududlar ichida Toshkent shahrida eng ko'p 16 957 ta yangi xo'jalik subekti ro'yxatdan o'tgan. 2024-yilda hududlar ichida eng kam ko'rsatkich Sirdaryo viloyatida 1 809 ta yangi xo'jalik subekti ro'yxatdan o'tgan.

1-diagramma ko'rsatilgan ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida ko'rsak bo'ladiki, faoliyat ko'rsatayotgan subektlarning 39 foizini savdo, umumiyligi ovqatlanish va xizmat ko'rsatishga, 24 foizi qishloq xo'jaligiga, 10,4 foizi sanoatga va 26,6 foizi boshqa sohalarga to'g'ri keladi.

Yangi ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar soni 77,2 mingta bo'lib, savdo, umumiyligi ovqatlanish va xizmat ko'rsatishda 55,2 foizni, qishloq xo'jaligida 11,8 foizni, sanoatda 15 foizni va boshqa sohalarda 18 foizni tashkil etadi.

Yangi ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar tomonidan 2024-yilda jami 1 675,8 mrd.so'm soliq (*ijtimoiy soliq bilan birga*) to'landi.




1-diagramma. 2024-yilda xo'jalik subektlar soni(mingta) (Shodiev, 2022)


2-diagrammadan ko'rishimiz mumkinki, iqtisodiyotdagi ijobjiy o'zgarishlar, soliq siyosati va ma'murchilagini yaxshilash bo'yicha vaqtida qabul qilingan qarorlar hamda mahallabay va korxonaboy yangi institutlari faoliyatini samarali tashkil etilishi natijasida 2024-yilda 199,5

trln so'm soliq tushumlari davlat budgetiga tushgan va 2023-yilga nisbatan 20,2 %ga (+33,5 trln so'm) oshgan.

2024-yilda hududlar kesimida tushumlarda eng yuqori o'sish sur'atlarni Toshkent shahri (26,7 %), Toshkent viloyati (22,9 %), Xorazm viloyati (19,5 %), Sirdaryo viloyati (24,6 %) va Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha Hududlararo soliq inspeksiyasi (20 %) tashkil etganini ko'rishimiz mumkin.




2-diagramma. Hududlar kesimida 2024-yilda tushumlar (mlrd.so'm) (Буранова, 2020)



3-diagramma. 2024-yilda qo'llanilgan soliq imtiyozlari soliq turlari bo'yicha (mlrd.so'm) (Исмоилов, 2023)

2024-yilda 249,5 ming holatda 22,2 trln so'mlik soliq imtiyozlaridan foydalanib, 2023 yilga nisbatan 3,1 foizga o'sgan. 3-diagrammadan ko'rishimiz mumkinki, 2024-yilda ko'p qo'llanilgan imtiyoz Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha 11,0 trln.so'm (49,5%), foyda solig'i 4,0 trln.so'm (18,0%), yer solig'i 2,1 trln.so'm (9,8%), ijtimoiy soliq 2,6 trln.so'm (11,8%), jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 1,3 trln.so'm (6,0%), mol-mulk solig'i 0,8 trln.so'mni (3,7%) tashkil etgan.

Yuqoridagi ma'lumotlarni tahlil qilar ekanmiz, 2023-yil bilan solishtirganda, 2024-yilda jami imtiyozlarning hajmi sezilarli ravishda oshgan. 2023-yilda jami qo'llanilgan imtiyozlar hajmi 60,6 mlrd.so'm bo'lib, asosiy qismi (50,6 mlrd. so'm yoki 83,6%) QQS imtiyozlaridan iborat bo'lgan. 2024-yilda esa soliq imtiyozlari keskin ortib (22 195,3 mlrd.so'm), QQS bo'yicha imtiyozlar hajmi ham sezilarli darajada oshgan.



4-diagramma. 2024-yilda soliq tekshiruvlari natijasida aniqlangan qo'shimcha soliqlar (mlrd.so'm) (Исмоилов, 2024)

2024-yilda soliq majburiyatiga ega 520 557 ta korxonaning 84 222 tasida yoki 16,2% (2023 yilda 570 372 ta korxonaning 105 859 tasi yoki 18,5%) soliq tekshiruvlari tashkil etilgan. 4-diagrammadan ko'rishimiz mumkinki, 2 143 ta soliqdan qochish xavfi yuqori bo'lgan soliq to'lovchilarda soliq audit o'tkazilib, 6 217,2 mlrd.so'm qo'shimcha soliq va moliyaviy sanksiyalar qo'llanilgan.

31 938 ta kameral soliq tekshiruvi o'tkazilib, 1 302,7 mlrd.so'm qo'chimcha soliqlar hisoblangan.

Tekshiruvdan oldingi tahlil – "Avtokameral" ATda 504 ta mezon asosida soliq to'lovchilarga xato-kamchiliklarini mustaqil bartaraf qilish imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. "Avtokameral" AT orqali soliq to'lovchilarning hisobotlarida aniqlangan tavofut va xatoliklarning qariyb 12,6 trln.so'mi bo'yicha ixtiyoriy ravishda aniqlashtirilgan hisobotlar taqdim etildi va 4,6 trln.so'mlik moliyaviy jarimalar qo'llanilishining oldi olingan. Natijada, budjetga 3,1 trln.so'mlik qo'shimcha soliqlar hisoblandi.

Yuqoridagi tahliliy ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, 2024-yilda Toshkent shahar va Toshkent viloyati kabi iqtisodiy faol hududlarda kuchli va o'sib borayotgan soliq salohiyati ko'rsatilgan. Shu bilan birga, soliq imtiyozlari, xususan, QQS bo'yicha, shuningdek, tekshiruvlar

natijasida aniqlangan katta miqdordagi qo'shimcha soliqlar soliqqa tortish imkoniyatlari hali ham foydalanilmaganligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa sifatida ko'rishimiz mumkinki, albatta soliqlardan berilayotgan imtiyoz va perefensiyalarning samaradorligi muntazam ravishda baholab borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki tahlillar natijasida soliq imtiyozlarining eng samarali bo'lganlarini davom ettirish mumkin bo'ladi va samaradorligi past bo'lganlarini qayta ko'rib chiqiladi. Berilayotgan imtiyozlarning o'rini berilishi, soliq bazasini kengaytirish, qonunchilikka rioya qilishni kuchaytirish va soliq siyosatini takomillashtirishga doimiy e'tibor har bir hududning soliq salohiyatiga ta'sir o'tkazadi.

O'rganishlar natijasida quyidagi chora-tadbilarni amalga oshirish iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qilmasdan soliq tushumlarini maksimal darajada oshirishga xizmat qilishi mumkin: Birinchidan, soliq qonunchiligiga rioya etish choralarini kuchaytirish; ikkinchidan, soliq imtiyozlari muntazam va tizimli optimallashtirish; uchinchidan, soliq nazoratini kuchaytirish; to'rtinchidan, ishbilarmonlik faolligini, ayniqsa salohiyati rivojlanayotgan hududlarni yanada rag'batlantirish.

Adabiyotlar / Литература/Reference:

Advisory Commission on Intergovernmental Relations (ACIR). 1982. Tax Capacity of the Fifty States: Methodology and Estimates

Bozorova L.A. (2012) Byudjet daromadlari barqarorligini ta'minlashda hududlar soliq salohiyatini oshirish yo'nalishlari. Iqtisod va moliya / Экономика и финансы № 12, <https://cyberleninka.ru/article/n/byudzhet-daromadlari-bar-arorligini-taminlashda-ududlar-soli-salo-iyatini-oshirish-y-nalishlari>

Farmon (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonnig taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

Ismoilov M.Q. (2025) European Journal of Business Startups and Open Society, Vol. 5 No. 4 (April): EJBSOS. The Role of Tax Revenues in Determining the Tax Potential of Regions. 285-290.

Ismoilov M.Q. (2025) European Journal of Business Startups and Open Society, Vol. 5 No. 4 (April): EJBSOS. The Importance of Tax Benefits in Determining the Tax Potential of Regions. 252-257.

Kuo, C.-Y. (2000) 'Estimation of Tax Revenue and Tax Capacity', Development Discussion Papers.

Shodiev O. (2022) Excise tax: general and special. Академические исследования в современной науке

Xudoqulov S. (2019) Soliq tushumlarini prognoz qilish metodologiyasini takomillashtirish. 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2019. 23-bet. Худайкулов С.К. Совершенствования Оценки Налогового Потенциала Регионов в Узбекистане // Международная конференция. "Экономика Евразии" 2018 г. www.avekon.org/proceedings/avekon10.pdf.

Буранова Л. (2020) Экономика и инновационные технологии, Финансовый потенциал региона: понятие, сущность и значение для развития Сурхандарьинской области.

Горский И.В. (1999) Налоговый потенциал в механизме межбюджетных отношений // Финансы. № 6. 11 с

Исмоилов М. (2024) Экономическое развитие и анализ, Роль налогового потенциала регионов в обеспечении финансовой устойчивости. 104-111.

Исмоилов М. (2024) Экономическое развитие и анализ. РОЛЬ НАЛОГОВОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ.

Исмоилов М.К. (2023) Экономика и социум. *Роль налогового потенциала в формировании доходов местного бюджета.*

Пелевин, И. Ю. (2014) АНАЛИЗ КОНЦЕПТУАЛЬНЫХ ПОДХОДОВ И МЕТОДОВ ОЦЕНКИ НАЛОГОВОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНОВ, Статистика и Экономика. doi: 10.21686/2500-3925-2014-5-70-72

Прокопенко Р.А (2007) Понятие и роль налогового потенциала в экономическом развитии региона / Научный журнал «Современные научноемкие технологии». №12

Худжамуратович, И. А. (2017) "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 2, март-апрель.

Шухрат, М., (2020) Научный, И. and Финансовый Институт, Т. 'Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar' Ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel.